Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi

Iso Bo'ronni Tinchlantiradi

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Janie Forest
Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2022 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Iso va Uning shogirdlari qayiqda suzib ketayotganlarida, kuchli bo'ron ko'tarildi. Jalila ko'li g'azabga minganga o'xshardi. Bunday bo'ron kema halokatiga va odamlarning cho'kib ketishiga olib kelishi mumkin edi.

Bo'ron shogirdlarni dahshatga soldi. To'lqinlar qayiqni qoplab, uni suvga to'ldirayotga edi. Iso esa yostig'ida, bo'ron paytida uxlab yotardi. Shogirdlar, "Ustoz, Ustoz, biz halok bo'lyapmiz!" deb Isoni uyg'otdilar.

“Ey imoni ozlar, nega qo'rqasizlar?” deb Iso shogirdlaridan so'radi. Keyin Iso shamolga to'xtashni buyurdi...Va... Iso quturayotgan to'lqinlarga to’xtab, jim bo'lishni buyurdi...

SHUNDA SHAMOL TO’XTADI... TO’LQINLAR TINCH VA SOKIN BO’LDI. Shogirdlar, “Bu inson kim bo’ldi ekan-a, hatto shamolu to’lqinlar ham Unga bo’ysunadi?” deb hayratda qolishdi.



Bir qancha vaqt o'tgach, yana bir kun Iso juda band bo'ldi. 5000 dan ortiq odam Uning orqasidan kimsasiz joyga borishdi. Xudoning qudrati bilan Iso butun olomonni faqat bitta bolaning tushligi bilan to'ydirdi. Kech tushdi. Iso hammani jo'natib yubordi.

Hatto shogirdlar ham ketishga majbur bo'ldilar.
Iso ularni qayiqqa o'tirib, Undan oldin, Jalila
ko'lining narigi tomoniga borishni urtirdi.





Hammani
jo'natib
yuborgach, Iso
ibodat qilish
uchun toqqa
yolg'iz chiqdi.
Kech kirganda,
Iso u yerda
yolg'iz qoldi.

Ko'lda shogirdlar shamol
bo'roniga tushib qolishdi.
Ular soatlab eshkak
eshishlariga qaramay,
bo'ron ularni ko'lning
narigi tomoniga
o'tishga
qo'ymadi.
Shogirdlar
bilishmasdiki,
ularni katta bir
ajablanarli
hodisa
kutardi!

Ertalab soat 3 dan 6 largacha bo'lgan vaqt orasida, bo'ronli bu ko'lda, shogirdlar ularni qo'rquvga to'ldirgan bir narsani ko'rdilar. Ular, "bu arvoh-ku!" deb baqirib yuborishdi. Lekin bu arvoh emas, balki ularning Rabbiysi va Ustozi Iso, SUV USTIDA YURIB, ular tomon kelayotgan edi.

Iso ularga, “dadil bo’linglar!” “Bu Menman, qo’rqmanglar,” dedi. Shunda Butrus Isoga, “Hazrat, agar bu Siz bo’lsangiz, amr bering, suv ustida yurib, Sizning oldingizga boray,” dedi. Shunda Iso unga “kel”, dedi. Butrus jasorat bilan qayiqdan suvga tushib, Iso tomon yura bo’shladi.

Ammo shamolnining kuchli ekanligini ko'rib, Butrus qo'rqdi va cho'ka boshladi. U, "yo Rabbiy, meni qutqaring," deb baqirdi.

Iso shu zahoti qo'lini cho'zib, Butrusni ushladi-da, "Ey imoni sust, nega ikkilanding?" deb so'radi. Butrus va Rab Iso qayiqqa tushganlaridan keyin, shamol tindi.

Shunda qayiqdagilar
Isoga sajda qilib,
“Siz haqiqatan ham
Xudoning O'g'lisiz”
dedilar.

Iso Bo'ronni Tinchlantiradi

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

…dan topilgan

Matto 8-bob, Matto 14-bob, Mark 4-bob,
Luqo 8-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Xudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Xudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Xudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun xochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Xudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Xudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening farzanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Xudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16